

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMINI DARSLIKLAR VA O‘QUV ADABIYOTLARI BILAN  
TA‘MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

**[Ko‘chirma]**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta‘lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida» **Farmoniga** muvofiq, uzluksiz ta‘lim tizimini zamonaviy talablarga javob beradigan o‘quv-uslubiy adabiyotlar majmui bilan ta‘minlashni takomillashtirish, bu muhim ishga yetuk olimlarni, yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi:

bir oy muddat ichida uzluksiz ta‘lim tizimi turlarida qo‘llaniladigan o‘quv-uslubiy adabiyotlar majmui va boshqa o‘quv vositalariga qo‘yiladigan talablar hamda ularni baholash mezonlarini ishlab chiqsinlar;

Davlat matbuot qo‘mitasi bilan birgalikda 1998-yil 1-fevralga qadar o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini qat‘iy buyurtmalar, shartnomalar va tanlov asosida yaratish, muhokamadan o‘tkazish va nashr etish tartibini ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar;

1998-yil 1-martga qadar amalda qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv-uslubiy adabiyotlar hamda boshqa o‘quv vositalarini ishlab chiqilgan yangi mezonlar asosida ekspertizadan o‘tkazsinlar.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish Respublika komissiyasi ekspertiza natijalarini ko‘rib chiqib, 1998-yil 15-martga qadar, qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv-uslubiy adabiyotlardan foydalanishni davom ettirish mumkinligi to‘g‘risida xulosa chiqarsin.

3. Davlat matbuot qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Davlat standartlash, metrologiya va sertifikatlash markazi 1998-yil 1-fevralga qadar yangi o‘quv-uslubiy adabiyotlar majmuining o‘quvchilar yoshi va rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning nashr sifatini yaxshilash maqsadida sanitariya-gigiyenik va matbaa standartlariga mos kelishini ta‘minlash uchun normativ hujjatlarni amalga kiritsinlar.

4. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi tasarrufida ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

«Ustoz» jamg‘armasi bilan birgalikda «Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti muallifi» tanlovini ta‘sis etsinlar va mukofotlash mezonini amalga kiritsinlar;

budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan darsliklar va o‘quv adabiyotlari yaratish uchun grantlar va «Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti muallifi» tanlovi g‘oliblariga mukofotlar ajratishni tashkil etsinlar.

5. Davlat matbuot qo‘mitasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, darsliklar va o‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan talablar hamda ularni baholash mezonlari asosida ekspertizadan o‘tkazilgan darsliklar va o‘quv adabiyotlariga mualliflik qalam haqi miqdorini shartnoma asosida erkin belgilash Nizomini ishlab chiqsin va amalga kiritsin.

6. 1998-1999 o‘quv yili (1-sentabr)dan boshlab o‘rta umumta‘lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini darsliklar bilan ta‘minlashning pulli shakli joriy etilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, darsliklar bilan ta‘minlash pulli shaklga o‘tilgandan keyin ham barcha maktablarning 1-sinf o‘quvchilari, mehribonlik uylari, aqlan va jismonan zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-intyernat o‘quvchilari ular bilan to‘laligicha bepul ta‘minlanadi.

7. Moliya vazirligi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi bilan birgalikda uzluksiz ta‘lim tizimi uchun yaratilajak yangi o‘quv adabiyotlari va boshqa o‘quv vositalarini nashr etishni ta‘minlash tartibini bir oy muddatda belgilasin va Davlat matbuot

qo‘mitasini 1998-yilda o‘quv darsliklarini uzluksiz nashr etish hamda joylarga yetkazib sotish uchun kyerakli aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlasin.

8. Darsliklar narxini arzonlashtirish maqsadida ular uchun chetdan keltirilayotgan qog‘oz, bo‘yoq, matbaa matyeriallari 3 yil muddatgacha boj to‘lovlaridan ozod qilinsin.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Davlat matbuot qo‘mitasi «O‘zdavkitobsavdota‘minot» hamda «O‘zbekbirlashuv» bilan birgalikda maktab o‘quvchilarini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan chakana savdo tarmog‘i orqali ta‘minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

11. Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda o‘quv kutubxonalarini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan yetarli darajada to‘ldirib borishni ta‘minlasinlar.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika ta‘lim muassasalarini darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta‘minlash to‘g‘risida» 1996-yil 15-iyuldagi 252-son [qarori](#) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A. Azizxo‘jayev zimmasiga yuklansin.

**Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
5-yanvar 1998-y.,  
4-son